

OSHXONANING ENG NOQULAY VA XATO JOYLASHISHINI YORITISH.

**ОСВЕЩЕНИЕ САМОГО НЕУДОБНОГО И НЕПРАВИЛЬНОГО
РАЗМЕЩЕНИЯ НА КУХНЕ.**

**LIGHTING THE MOST INCONVENIENT AND INCORRECT PLACEMENT IN
THE KITCHEN.**

Axmedjanova Umida Baxodirovna

*O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat dizayni kafedrasi dotsenti,*

G‘iyosiddinova Sabina Yunus qizi

*O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat dizayni kafedrasi talabasi,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oshxonaning qulay joylashishi hamda noqulayliklari bartaraf qilishga bag‘ishlangan. Asosan, zamonaviy uy – joylarda oshxonani noto‘g‘ri rejalashtirish oqibatida yuzaga keladigan muammolar, ularning kundalik hayotga salbiy ta‘siri yoritilgan. Ergonomika tamoyillari, harakat yo‘llarining uzluksizligi, ish uchburchagi qoidalari va funksional zonalarining noto‘g‘ri joylashuvi misollar orqali ko‘rsatib berilgan.

Annotation: This article is devoted to the convenient location of the kitchen and the elimination of inconveniences. Basically, the problems that arise due to improper kitchen planning in modern homes and their negative impact on everyday life are highlighted. The principles of ergonomics, continuity of movement paths, the rules of the work triangle and the incorrect location of functional zones are illustrated through examples.

Kalitso‘zlar: Gigiyena buzilishi, oshxona, keskin pichoqlar, isitish, pardalar, dekorativ panellar, oraliq devorlar, tampon zona, buffer, yoritish, pechka, yotoqxona, shamollatkich, ventilyatsiya, zamburug‘, estetik dizayn.

Keywords: Hygiene violations, kitchen, sharp knives, heating, curtains, decorative panels, partition walls, buffer zone, lighting, stove, bedroom, fan, ventilation, fungus, aesthetic design.


Oshxona – bu nafaqat taom tayyorlanadigan joy, balki oilaviy iliqlik, qulaylik va funkcionallik talab qilinadigan muhim makondir. Ammo afsuski, ko'plab uy-joy loyihalarida oshxona noto'g'ri joylashtirilgani sababli, kundalik hayotda noqulayliklar yuzaga keladi. Bu maqolada aynan shunday xatolarni va ularning oqibatlarini yoritamiz.

Oshxona loyihalashda asosiy xatolardan biri bular:

Ish uchburchagi tamoyiliga amal qilmaslik. Ya'ni (Gaz Plita, Muzlatgich va yuvish moslamasi) orasidagi masofa juda uzoq yoki juda yaqin bo'lishi.

Tor va o'tish yo'liga to'g'ri kelgan joylashuv: Asosan odamlar harakati oshxonada erkin bo'lishi kerak. Oshxona ish maydoni yetarlicha ajratilmaganligi bu oshxonada stol va jihozlarni noto'g'ri joylashishiga va ovqat tayyorlash noqulay bo'lishiga olib keladi. Stol usti gavjum bo'lib ish unumdorligi pasayadi. Oshxonada tartibsizlik va to'planish yuzaga keladi. Xavfsizlik muammolari kuchayib, bir vaqtning o'zida bir nechta odam ishlashni xoxlasa oshxona torlik qilishi mumkin.

Oshxonani to'g'ridan-to'g'ri kirish eshigi oldida joylashtirish – eng keng tarqalgan xatolardan biridir. Bunday joylashuv natijasida tashqaridan kirgan chang, sovuq havo va shovqin oshxonaga tez kirib keladi. Bundan tashqari, mehmon uyga kirgan zahoti oshxona ichki ko'rinishiga duch keladi, bu esa estetik tomondan qulay emas. Bu xatolik ko'proq kichik uylar yoki noto'g'ri loyihalangan binolarda uchraydi. Kirish eshigiga yaqin joylashgan oshxona ko'plab noqulayliklarni sabab bo'ladi:



Asosiy muammolar:

- **Gigiyena buzilishi:** Tashqaridan kirgan odamlar bilan birga chang, loy va mikroblar to'g'ridan-to'g'ri oshxonaga kirib keladi. Bu esa ovqat tayyorlanadigan joyda gigiyenik muammolarni yuzaga keltiradi.

- **Sovuq havo va shamol:** Ayniqsa qishda eshik har ochilganida sovuq havo ichkariga uriladi. Bu nafaqat noqulaylik tug‘diradi, balki isitish xarajatlarini ham oshiradi.

- **Xavfsizlik muammosi:** Oshxonada issiq suyuqliklar, keskin pichoqlar bo‘lishi sababli, eshik har ochilganida kutilmagan harakatlar xavf tug‘diradi, ayniqsa bolalar bo‘lsa.

- **Shovqin va estetik buzilish:** Mehmonlar kirishi bilan birinchi ko‘zga tashlanadigan joy oshxona bo‘ladi. Tartibsizlik yoki oshxona hidlari mehmonlarda salbiy taassurot qoldirishi mumkin.

Yechimlar:

- Oshxonani uy ichida, ya‘ni kirish eshigidan biroz uzoqroq, boshqa xonalar orqasida joylashtirish.

- Agar imkon bo‘lmasa, **pardalar, dekorativ panellar yoki oraliq devorlar** orqali oshxonani ajratish.

- Kirish joyida maxsus **tampon zona** yaratish-bu kichik oraliq zonasi bo‘lib, tashqi kirish bilan ichki makon orasida buffer rolini bajaradi.

2.Yoritishning yetarli emasligi:

Tabiiy yorug‘likdan uzoq, derazasiz joyda joylashgan oshxonalar- zamonaviy interyerda jiddiy xato hisoblanadi. Agar oshxonada tabiiy yorug‘lik yoki sun‘iy yoritish yetarlicha bo‘lmasa, taomlar tayyorlash qiyinlashadi. Oshxonada vizual jihatdan kichik va tor ko‘rinadi. Ko‘z zo‘riqishi ortadi ayniqsa kechqurun ishlaganda. Yoritish moslamalari noto‘g‘ri joylashsa yorug‘lik noto‘g‘ri burchakdan tushib soyalar hosil qilishi mumkin. Agar yoritish faqat oshxona markazida bo‘lsa ish zonalar (pechka va h.k) qo‘shimcha jihozlar qorong‘uda qoladi. Bunday holat, nafaqat xira ko‘rinish, balki ishlash uchun ham noqulaylik tug‘diradi.

Asosiy muammolar:

1.Hidlarning to‘planishi:

- Derazasiz va shamollatkichsiz oshxonada ovqat pishirishdan chiqqan hidlar to‘planib qoladi.

- Ular uyning boshqa xonalariga ham kirib boradi, ayniqsa yotoqxona yoki mehmonxona yaqin bo‘lsa.

2.Namlik va zamburug‘lar:

- Ventilyatsiya sust bo‘lsa, bug‘ va namlik kondensatsiyalanadi.

- Bu devor va shiftda qora dog‘lar-mog‘or (zamburug‘) hosil qilishiga olib keladi, bu esa sog‘liq uchun zararli.

3.Sun‘iy yorug‘likka tobelik:

- Tabiiy yorug'lik yetishmasa, kun davomida elektr chiroqlarni yoqishga tog'ri keladi. Bu esa energiya sarfini oshiradi va ko'zni charchatadi.

4. ko'rish qobiliyatiga salbiy ta'sir:

- Yaxshi yoritilmagan oshxonada ovqat pishirish, pichoqlardan foydalanish xavfli bo'lishi mumkin.
- Ayniqsa kechki paytlar yoki elektr chirog'i kuchsiz bo'lsa, ko'rish qiyinlashadi.

Yechimlar:

Deraza mavjud bo'lmagan hollarda majburiy shamollatkich (extractor fan) o'rnatilishi shart. Yumshoq va tarqoq sun'iy yorug'lik manbalari tanlanishi kerak (masalan: LED panel chiroqlar). Oyna o'rnida shaffof shisha yoki deraza simulyatori qo'llanishi mumkin - bu kamida psixologik yorug'lik hissini beradi. Shift yaqinidagi kichik derazalar yoki ventilyatsiya panjaralari orqali tabiiy havo aylanishi yaratish mumkin.

3. Oshxona va ovqatlanish zonasi o'rtasidagi masofa:

Oshxona va ovqatlanish joyi (ya'ni stol-stul qo'yiladigan joy) o'rtasidagi masofa noto'g'ri tashkil qilinsa, kundalik hayotda juda katta noqulaylik tug'iladi. Ayniqsa, katta uy yoki xonadonlarda bu muammo ko'proq uchraydi. Agar oshxona va ovqatlanish zonasi bir-biridan juda uzoq joylashgan bo'lsa, bu amaliyotda juda noqulaylik tug'diradi. Har bir taom olib borish, idish-tovoqlarni ko'tarib yurish charchatadi va ba'zan xavfli ham bo'lishi mumkin, ayniqsa zinalar yoki tor yo'laklar mavjud bo'lsa.

Muammoli holatlar:

Ovqat tashishdagi noqulaylik: Har bir taom, ichimlik yoki idishni uzoq masofaga olib boorish kerak bo'ladi. Ayniqsa issiq ovqatlar bilan bu xavfli ham bo'lishi mumkin (to'kilish, kuyish).

Ko'p vaqt va kuch sarfi: Har bir safar oshxonadan ovqat olib chiqish yoki idish-tovoq olib boorish charchatadi, ayniqsa ziyofat payti. Bu ayniqsa, katta oilalarda yoki bolali onalar uchun noqulay.

Estetik va dizayn muammolari: Oshxona va ovqatlanish zonasi bir-biridan uzoq bo'lsa, interyerdagi uyg'unlik buziladi. Ba'zida hatto turli qavatlarda joylashadi - bu esa eng katta dizayn xatosi.

Xulosa - oshxonaning noto'g'ri va noqulay joylashuvi nafaqat uy egalarining kundalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki vaqt va energiya sarfini oshiradi. Maqolada keltirilgan holatlar asosida shuni aytish mumkinki, oshxona dizaynini loyihalashda ergonomika, funksionallik va makon samaradorligiga alohida e'tibor berish zarur. Har bir detaldagi aniqlik va to'g'ri rejalashtirish orqali qulay, xavfsiz va estetik jihatdan mukammal oshxona muhitini yaratish mumkin. Shu bois, loyihalash bosqichida mutaxassis

maslahatlariga tayanish va foydalanuvchi ehtiyojlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar.

1. Timothy Samara. Design Elements. - New York: STIM Visual Communication, 2011.- 272 p.
2. Александр Навроцкий, О. А. Казачкова, Виктор Борисович Лившиц "Ковка и литье. Изготовление ювелирных и декоративных изделий" 2011 год.
3. В. И. Куманин "Материалы для ювелирных изделий", 2012 год.
4. Марченков В.И. Ювелирное дело. М., 1990.
5. Абдуллаев Т., Фахреддинова Д., Хакимов А. Песнь о металле. Т.: Изд. литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1986.
6. Ахмеджанова Умида Баходировна Психология цвета в рекламе // Евразийский научный журнал. 2017. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologiya-tsveta-v-reklame>
7. Bakhodirovna, A. U. (2022). Baroque Art and Architecture in France. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 480-483. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1328>
8. Ахмеджанова Умида Баходировна Искусство и архитектура XV века в Италии // Наука, образование и культура. 2020. №5 (49). С. 62-64. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvo-i-arhitektura-xv-veka-v-italii>
9. АХМЕДЖАНОВА У. Б. СОВРЕМЕННОЕ РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ОСВЕЩЕНИЯ САДОВО-ПАРКОВЫХ ЗОН ГОРОДА // Развитие и актуальные вопросы современной науки. – 2018. – №. 5. – С. 241-244.
10. Ахмеджанова У. Б. ИСКУССТВО БАРОККО И АРХИТЕКТУРА ФРАНЦИИ // INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2021. – С. 19-23.